

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
KOREYS FILOLOGIYASI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI
**MAVZU: KOREYS TILIDA UNDOV
GAPLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI**

5220100-FILOLOGIYA YO'NALISHI

Bajardi: "Koreys filologiyasi" ta'limyo'nalishibitiruvchi kurs
talabasi Madaminova Dilrabo

Ilmiy rahbar: koreys filologiyasi o'qituvchisi Shakirova.N_____
Ilmiy maslahatchi: koreys kafedrası dotsenti, f.f.nSaydazimova U.T.

Toshkent-2014

Mundarija

Kirish	3
I.6ob. Koreys tilshunosligida undovlarning o'ziga xos xususiyati	7
1.1. Undovlarning til paydo bo'lishidagi o'rni va ahamiyati	7
1.2. Koreys tilida undovlarning ma'noturlarivaqo'llanilish doirasi	10
II.6ob. Koreys tilida undov gaplarning yasalishi	16
2.1. Undov so'zlar bilan yasalgan undov gaplar	16
2.2. Qo'shimchalar yordamida yasalgan undov gaplar	25
Xulosava takliflar	31
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	35

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo tilshunosligining hozirgi holati, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, boshqa fanlarga bo'lgani kabi, o'zbek va koreys tilshunosligi oldiga ham yangi vazifalar qo'yimoqda. Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida alohida ta'kidlaganidek, "ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar chop etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz"¹.

Hozirgi kunda g'arb tillari bilan bir qatorda sharq tillarini o'rganishga bo'lgan talablar kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu bitiruv malakaviy ish koreys tilining ajralmas qismi bo'lgan undov gaplar va ularning grammatik xususiyatlariga bag'ishlangan. Ma'lumki, har bir tilda shy tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlari bevosita o'z aksini topadi. Shuningdek, til doim jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu bog'liqlikning asosiy komponenti bo'lgan tilning vujudga kelishida esa, undovlar to'g'risidagi farazlar ham mavjud. Koreys tilida undovlar gap turlaridan biri sifatida o'rganiladi. Undov gaplar so'zlashuv nutqida ko'p ishlatiladi. Uning yordamida nutqimiz jonliligi, ishonchliligi ortadi, nutqdagi his-tuyg'u bo'yog'ini beradi. Xalq tasavvuri va turmush tarzining turli xilligi sabab bir tildagi undov gapboshqa bir tildagi undov gap xususiyatlari bilan to'g'ri kelmaydi. Koreys tilini o'rganayotgan talabalar koreys tilidagi undov gaplarni ona tilida mavjud undov gaplarning xususiyatlari bilan solishtirish va talqin qilish natijasida ko'pgina muammoli vaziyatlarga duch kelishadi. Hususan, olibborilgan kichiktadqiqot ishinatijasida koreys tilida mavjud undov gaplarning 70foizning o'zbek tilida ekvivalenti mavjud. Shu bilan birga, koreys tilidagi ba'zi undov gaplaroxirida undov tinish belgisi qo'yilmay berilishi ham, ularni undov gap

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. - B. 87.

sifatida o'rganishdagi qator muammolarni yuzaga keltiradi. Boshqa ,tillardan farqli o'laroq, koreys tilida so'zlovchi hissiyotini ifodalashda undov so'z va qo'shimchalardan keng foydalaniladi. Boshqa tillarda bu hissiyotlar ifodasi so'z yoki so'z birikmasi tarzida berilishi mumkin. Natijada esa, tarjima jarayonida undov so'z bilan ifodalanishi kerak bo'lgan voqelik mazmuni qisman o'zgaradi. Shu sababli koreys tilida undov gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish masalasi bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Ishning o'rganilganlik darajasi: Koreys tili qadim tarixga egatillardan biridir. Bu tilning o'ziga xos xususiyatlari ko'pchilik tadqiqodchilarda qiziqish uyg'otmoqda. Jumladan, Angilyaning "Garvard" universiteti tilshunos olimlari koreys tilini dunyodagi eng sodda va har taraflama o'rganilib, tartib bilan tuzilgan tillar qatoriga qo'shishadi.² Koreys tiligrammatikasi XVI asrdan boshlab rus tilshunos olimlari tomonidan o'rganila boshlangan. Xususan, mashxur tilshunos olim Yu.N.Mazur koreys tili grammatikasiga oid ko'plab asarlar yaratgan. U o'zining "Грамматика корейского языка" asarida koreys tilining grammatik xususiyatlarini batafsil ёритиб берган. Jumladan undov gaplarni ham guruhlariga bo'lib o'rgangan. Bundan tashqari koreys tilshunos olimi So Jong Su (서정수) "Koreys tili grammatikasi " asarida undov gaplarni uch guruhga, yani: his-hayajon, hojish-istak va gapdagi odat undovlariga bo'lib o'rganadi.³ Har bir guruhlarni esa yana bir qancha kichik guruhlariga bo'lib chiqadi. Yana bir tilshunos olim Nam Gi Shim (남기심) undovlarni tuzilish jihatdan ikkiga bo'ladi: 1. Undov so'zlar orqali yasaladigan undov gaplar. 2. Qo'shimcha orqali yasaladigan undov gaplar. Li Ju Heng esa undov gaplarni yasashda qo'llaniladigan undov so'zlarni sintaktik xususiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratib o'rganadi: 1. Gapda shaklini o'zgartirmaydigan undov so'zlar. 2. Gap bilan bir xil imkoniyatga ega bo'lgan undov so'zlar: Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozishda biz koreys tilshunos

²이석주., 이주행한국어학개론., 서울시., 2006, 243 쪽

³서정수. 국어문법. 서울., 1996.168-169 쪽

olimlari So Chong Su, Ham Gi Shim va Ko Yong Gnlarning shu mavzudagi ilmiy-tadqiqot ishlariga tayanib ish ko'rdik.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi koreys tilida undov gaplarni har tomonlama mukammal o'rganib, ularning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Dunyo tilshunosligida undovlarning o'rni vatilshunos olimlarning nazariyalarini o'rganish.
2. Koreys tilimatnidagi undov gaplarning ma'no turlarini ko'rib chiqish.
3. Koreys tilidagi undovlarning tuzilish jihatdan qanday guruhlarga bo'linishini aniqlash.
4. Koreys tilidagi undov gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish.

Ob'yekti va predmeti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining ob'yekti sifatida koreys tilidagi undovlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bo'lsa, bunda koreys tilshunos olimi So Jong Su (서정수)ning "Koreys tili grammatikasi" asari va Nam Gi Shim va Ko Yong Gnlarning "Koreys adabiy tili grammatikasi" asarlari predmet sifatida xizmat ko'rsatdi.

Ishning amaliy ahamiyati. Koreys tilida undov gaplar tilshunosliginuqtai nazaridanko'rib chiqish hamda olimlarning undov gaplar haqidagi turli xil fikrlarini umumlashtirish orqali, undov gaplarning matndagi qo'llanilish soxasi o'rganildi. Keltirilgan ma'lumotlar "Asosiy sharq tili (koreys) tilinazariygrammatikasi" hamda "Koreys va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi" fanlaridan ma'ruza matnlari uchun qimmatli material bo'lishi mumkin, koreystili fanidan kurs va bitiruv malakabiy ishiniyozishda asqotadi.

Bitiruv malakaviy ish tuzulishi. Mazkur bitiruv malakaviyish kirish, 2 bobdan iboratasosiy qism, xulosava takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida malakaviy ishning dolzarbligi ko'rsatilib, maqsad va vazifalar belgilangan, ishning amaliy ahamiyatiko'rsatilib, asosiy manbalar haqida ma'lumot berilgan.

Asosiy qismda undov gaplarning tildagi o'ziga xos xususiyatlari, undovlar haqidagi umumiy nazariyalar va undov gaplarning matnlarda qo'llanilishi, shuningdek, koreys tilidagi undov gaplarning tuzilishi jihatdan ikkiga bo'linishi ko'rsatilgan.

Xulosavatakliflar qismida mazkur tadqiqot ishida qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, keltirilgan ma'lumotlar umumlashtirilgan fikrlar va natijalar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida mavzuniyoritishda foydalanilgan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar, koreysshunoslikning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman manbalari, nomzodlik dissertatsiya avtoreferatlari, internet saytlari keltirilgan.

I bob.Koreys tilshunosligida undovlarning o'ziga xos xususiyati.

1.1. Undovlarning til paydo bo'lishidagi o'rni va ahamiyati.

Qadimgi til haqidagi manbalarida undovlar maxsus so'z kategoriyasi sifatida emas, balki tilning, so'zlarning paydo bo'lishini aniqlash munosabati bilangina tekshirilgan.⁴Bu manbalar tarixi antik dunyo faylasuflari tomonidan ilgari surilgan tilning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalaridan boshlanadi.Til paydo bo'lishi haqidagi bunday farazlardan biri undovlar ҳақидаги farazdir.Bu faraz ham qadimiy bo'lib, uning asosida hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlari yotadi. Bu faraz asoschilarining fikricha, ibtidoiy davr odamlari turli hayvonlarning tovushlari, baqiriq-chaqiriqlarini o'rganib, ularga taqlid qilib o'zlarining ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini ifoda etganbo'lib,uning asosida undovlar paydo bo'lgan. Tildagi boshqa so'zlar esa ana shu kabi undov so'zlardan kelib chiqqandeb hisoblanadi.Biroq undov haqidaginazariya antik falsafada tilning paydo bo'lishi haqidagi yagona nazariya emas edi.

Tilning paydo bo'lishi muammosini undovlar bilan bog'lab tushuntirish ayni zamonda ana shu yo'nalishdagi boshqa bir nazariyaga qarama-qarshi qo'yilgan. Shuning uchun tilning paydo bo'lishi haqidagi undov haqidaginazariya bilan tanishishdan oldin, bu nazariyani ilgari surgan faylasuflar tomonidan tanqid ostiga olingan nazariyani - tovushga taqlid nazariyasini ko'rib chiqishga to'g'ri keladi.Antik dunyoning idealist faylasuflaridan biri Platon "Odam atrofidagi hodisalardan nutq vositasi bilan instinktiv ravishda nusxa oladi. So'z-narsalar mohiyatining tovush orqali aks etishidir"⁵ deb yozgan edi.Platondan so'ng taqlid nazariyasini oldinga surganmaterializim va idealizm tarafdorlari fikricha, so'zning tovush tarkibi bilan so'z ifodalagan predmet orasida qandaydir ichki bir o'xshashlik, moslik bor. Ba'zan predmet hosil qiladigan tovush so'zning tovush tarkibida aks etsa, ba'zan esa, so'zning tovush tarkibi so'z anglatgan predmetdan hosil bo'ladigan inson tasavvurini aks ettiradi. Masalan, shirin, xush yoqadigan narsalarning nomlari ham mayin, yumshoq eshitiladigan tovushlardan tuzilgan

⁴ I. Yo'ldoshev, U. Sharipov. Tilshunoslik asoslari. -Toshkent., 2007.,-B. 7.

⁵ I. Yo'ldoshev, U.Sharipov. Tilshunoslik asoslar.Toshkent., 2007.,-B.8.

bo'lca, aksincha, achchiq, xush yoqmaydigan narsalarning nomlari quloqqa yoqmaydigan, dag'al tovushlardan tarkib topgan bo'ladi.

N.K.Ashmarin asarlarida tovushga taqlid nazariyasi oldinga surilgan. "Tovushga taqlid nazariyasi, odam tabiatdagi tovushlarni (sharsharaning sharillashi, parrandalarning sayrashi, hayvonlarning tovushlari va boshqa shovqinlarni) eshitib, o'z nutq jarayoni bilan ularga taqlid qilishga urinadi. Taqlid natijasida paydo bo'lgan tovushlar o'sha predmet va hodisalarning signali yoki simvoli bo'lib qoladi", - degan edi.

Til, haqiqatdan ham, hayvon va parrandalarning, tabiiy hodisalarning tovushlariga taqlid qilishdan tug'ilgan bo'lsa, hamma so'zlarning arxaik o'zaklari tovushga taqlid undovlarga borib taqalgan bo'lar edi. Holbuki, tovushga taqlid deb ataladigan so'zlar leksikaning juda oz qismini tashkil qiladi. Bu o'rinda "Predmet yoki hodisani atash uchun xizmat qiladigan tovush kompleksining xarakteri shu predmet yoki hodisaning xarakteri bilan hech qanday uzviy aloqaga ega emas", degan xulosa to'g'ri hisoblanadi.

Tovushga taqlid nazariyasining ko'p holda tilshunoslik nuqtai nazaridan to'g'ri emasligi undov nazariyasi tarafdorlariga yo'l ochgan edi. Undov nazariyasi dastavval yunon faylasuflari tomonidan ilgari surilgan. Bu nazariya qadimgi Rim shoiri Tit Lukrechiydan meros bo'lib qolgan. Uning fikricha, til kishilarning o'z ruhiy holatlarini tovushlar orqali ifodalash ehtiyojidan maydonga kelgan. Emotsiya natijasida tug'ilgan tabiiy tovushlar undovlarni yaratadi. Qolgan barcha so'zlar keyin ana shu undovlardan taraqqiy etadi. Qadimgi inson atrofidagi narsa va hodisalarni ko'rganida paydo bo'lgan his-hayajon natijasida g'ayri ixtiyoriy tovushlar chiqargan. Bu tovushlar keyinchalik o'sha predmetlarni ifodalaydigan bo'lib qolgan degan tamomila noto'gri xulosaga kelgan. XIX asr tilshunoslari epikurchilarning undov nazariyasiga qator «tuzatish» va «aniqliklar» kiritgan, ya'ni, undov nazariyasida mimika va imo-ishoraning roli borligi ko'rsatilgan. V.Vundtning (1832-1920) asarlarida ham keltirilishicha, nutq organlarining tovush hosil qiluvchi xarakatlari bilan mimika xarakatlari va imo-ishora orasida prinsipial farq yo'q.

L. Nuarsning «ish» yoki «mohiyat» deb ataladigan «nazariya»si ham undov nazariyasiga juda yaqindir. Uning fikricha, til qadim mehnat paytida aytiladigan g'ayri ixtiyoriy tovushlardan (qichqiriqlardan) kelib chiqqan. G'ayriixtiyoriy qichqiriqlar хақидаги go'yo keyinchalik sekinlik bilan mehnat jarayonining timsoliga aylangan va dastlabki so'zlar bo'lgan. Bunday so'zlar fe'l o'zaklaridan iborat bo'lgan. L. Nuars tilning yaratilishi haqida fikr yuritganida jamoa mehnat natijasida tafakkurning paydo bo'lishi, tilning esa tafakkur bilan dialektik birlik tashkil qilishini e'tiborga olmaydi. L. Nuarsning bu nazariyasiga ko'ra til aloqa quroli bo'lmay, mehnatga erishuvchi emotsional vositadir.

Akademik Marr “tovush tili kohinlarning totemga bag'ishlangan diniy o'yinlari vaqtida paydo bo'lgan”, deydi, ya'ni L. Nuarsning «ish» nazariyasini boshqacharoq shaklda taqdim etadi, xolos. Olimning «ko'l tili» haqidagi «nazariya»si ham, tovush tilning paydo bo'lishi haqidagi «nazariyasi» ham yangi nazariya bo'lmay, antik dunyodan ungacha uzoq vaqt davom etib kelgan undov va «ish» nazariyalarining so'nggi «taraqqiyoti»dir.

N. K. Ashmarin undovlarni (uningcha mimemalarni) ana shunday biologik jarayon mahsuloti deb hisoblaydi. Inson tili bunday tabiiy sezgi ifodalash quroligina bo'lishi mumkin emas. Agar shunday bo'lganida inson tili hayvonlarning reflektor tovushlari, qichqiriqlari bilan teng bo'lib qolar edi.

Ma'lumki, tilning paydo bo'lishi masalasi bunday emotsional tovushlarga bog'lanmaydi. Til mohiyati protsessida tafakkur bilan birga paydo bo'ladi va u bilan bog'liq ravishda taraqqiy etdi. Til mehnat qilish jarayonida o'zaro aloqaga kirishuv vositasi sifatida yaratilgan.⁶

Tilning kelib chiqishini insonning hayajoniga, tuyg'usiga yoki tabiiy qichqiriqlariga bog'lash nazariyasi -intereksiya nazariyasining ijodchilari esa mana bu tarixiy sharoitni hisobga olmagan. Agar qadimgi so'zlar his-hayajon asosida yaratilgan bo'lsa, keyingi davrlarda, hatto hozir ham, so'zlar ana shu asosda yaratilishi kerak edi, chunki hozirgi insonning tuyg'usi qadimgi insonning tuyg'usidan ko'p ustun, nozik va taraqqiy etgandir. To'g'ri, inson va uning nutqi

⁶ I. Yo'ldoshev, U. Sharipov. Tilshunoslik asoslari. Toshkent., 2007., B.8

qadimdan emotsionallikka ega bo'lgan. Hozir ham unda emotsionallik bor. Biroq, insonning emotsiyasi, hissi, uning tafakkuridan ajralgan alohida emas, balki bilan bog'langan hodisadir. Dunyodagi barcha tillarda undovlar mavjud. Lekin bu so'zlarning miqdori shu qadar kamki, tildek murakkab hodisa ana shu yo'l bilan paydo bo'lgan, deyish bu masalani soddalashtirib yuborgan bo'lar edi.⁷

Hozirgi tillar har biri, so'zsiz, uzoq taraqqiyot tarixiga ega. Hozirgi mavjud bo'lgan tillardan va ularning bizga ma'lum bo'lgan tarixiy qiyofasidan tilning paydo bo'lishi jarayonini ajratib bolmagani kabi, hozirgi tillarning asosini tilning paydo bo'lishidan keltirib chiqarib bo'lmaydi, chunki hozirgi tilning elementlari juda qadimgi davrlarda vujudga keldi. Hayotimizda undovlarning ya'ni undov gaplarning ahamiyati kattadir. Undov gaplar nutq tushunarli va ishonchli, shuningdek, ta'sirchanligini oshirishda xizmat qiladi. Bu borada K. Paustovskiy ham undovlarsiz gapni, undov gaplarsiz esa nutqimizni tasavvur etish mushkuligini alohida ta'kidlagan edi.

Ma'lumki, tilning jamiyatdagi funksiyasi insonlar orasida muloqot va axborot almashinuvini ta'minlash hisoblanib, tilning paydo bo'lishini undovlar nazariyasi bilan bog'lash esa, uning bu funksiyasini rad etadi. Shu narsa ayonki, tilning mavjudligi va taraqqiy etishi insonlar, ya'ni jamiyat bilan bevosita bog'liq. Jamiyat borki, til bor va aksinchadir.

1.2 Koreys tilida undovlarning ma'noqo'llanilish doirasi.

Koreys tilida gaplar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- 1) Gapning ma'nosiga ko'ra (darak gap, so'roq gap, buyruq gap).
- 2) His-hayajon ishtiroliga ko'ra (undov gap va undov bo'lmagan gap).
- 3) Gap bo'laklari ishtirokiga ko'ra (bir bo'lakli va ko'p bo'lakli)
- 4) Tuzilishiga ko'ra (sodda va murakkab)⁸

Undovlar gap yoki gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan, so'zlovchining his-hayajoni, buyruq, istak, ta'kid va javobini

⁷М.Т.Ирисқолов "Тилшunoslikka kirish" Toshkent-2009.B.12

⁸Ли Б.С., Шим Л.В."Сравнительная типология корейского и узбекского языков " Ташкент-2011. Стр.230.

ifodalaydigan yoki predmetlarning o'rin va vaqtga munosabatini emotsional bo'yoqlar bilan ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi grammatik kategoriyadir.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi koreys tilida ham undovlar ayrim so'z sifatida ma'lum bir predmet yoki uning belgisini ifodalamaydi, balki, his-hayajon kabi inson tuyg'usining so'zlarda bevosita in'ikosidir. Undovning ma'nosi ma'lum bir vaqt, sharoit va o'rinda aniqlanadi. Shu jihatdan undovlar boshqa so'zlardan ajralib turadi.

Koreys tilidagi matnlarda undovlar quyidagi ma'nolarda qo'llanishi mumkin:

1. Darak gap ma'nosida:

싱거운 일이다!⁹ - Ajoyib voqea bo'ldi!

2. Buyruq gap ma'nosida:

애, 위스키 병으로 가져와!¹⁰ - Hoy, viski olib kel!

3. So'roqgap ma'nosida:

아세요! 노여십니다.¹¹ - Bilasizmi?!Hafasiz.

이집은협착해서어떡해살어!¹²-Bu uy tor, qanday yashayman!

저놈들이또기어들어와!¹³-Ana u yaramaslar yana tiqilib kirib keldimi-a?!

4. Taklif gap ma'nosida:

나부터하자!¹⁴-Mendan boshlaylik!

Koreys tilida undov so'zlar mustaqil so'z bo'lib, gapning boshida, o'rtasida va oxirida ham qo'llanilishim mumkin.

Misol uchun:

Gap boshida:

⁹이광수.전통한국문학대계 01., -서울시.,1994.-57 쪽.

¹⁰O'sha manba172 쪽.

¹¹O'sha manba173 쪽.

¹²이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -61 쪽

¹³O'sha manba-21 쪽

¹⁴O'sha manba -35 쪽

아뿔싸, 노트를안가져왔니!

Eh, daftirimni qoldirib kelibman-a!

Gap o`rtasida:

철수아무렴, 오겠지!

Cholsu qanday qilib bo`lmasin, keladi!?

Gap oxirida:

여러분조용해, 쏿!

Shovqin qilmang, tushish!

그래백지제자식을판담, 예익!¹⁵

Shunday qilib, meni farzandim sotdi-ya, eh!

Undovgaphaqiqatyokio'yfikrgaoidso'zlovchininghis-tuyg'usiniifodalaydigangapshaklidir.Biroq so'zning manosini anglatmasa-da, hissoyotni ifodalaydi.Bu kabi undov gaplarda undov so'zlar qo'llamasa-da gap undov ma`nosini anglatadi, chunki gap kesimi undov qo'shimchalar bilan tugallangan bo'ladi.Undovgaplar-구나,-군(요),-규려,-아/어라,-누나,-노라,-도다, -야 kabi tugallanma qo'shimchalarni qabul qiladi.Undov gaplarning talaffuzi gapdagi kesimga qo'shilgan qo'shimchalar orqali hosil qilinadi.

Masalan:

가) 날이밝았구나! - Havo ochiq bo'ldi-ya!

나) 처사람이미쳤군! - U kishi ketdimi-a!

다) 인생은아름다워라- Hayot naqadar go'zal!

라) 저녁놀빈하늘만눈에차누나! - Kechquringi shafaq ko'zni qamashtiradi-ya!

마) 심판이날이돌아왔도다!-Bozorda savdo qilish kuni yaqinlashib keldi!

바) 왔노라, 싸웠노라, 이겼노라! – Keldik, jang qildik, yutdik!

가) 새집으로이사오니아주종구먼! - Yangi uyga ko`chdingmi,juda chiroylidir-a!

¹⁵O'sha manba -53 쪽

나) 당신도 알고있었구려! - Sen ham bilgan bo'lsang kerak!

다) 경치가참좋군요! - Oh, tabiat juda yoqimli!

(다~바)gaplardagi qo'shimchalar hurmat kategoriyasining quyishaklida ishlatiladi. (가)gapdagi-구먼 ham quyi forma deb tasnif qilinadi, masalan:

가) 자네는돈이별로없구먼! - Senda pul umuman yo`q-ku!

김서방아전화를했구먼! - Kim janoblari telefon qilgandi-ku!

(가~바)gaplar hurmat formasi bo'lishiga qaramasdan ular o'rtasida ham bir qancha farqlar bor. (Koreys tilida shaxs-son qo'shimchalari yo'qligi tufayli bu gaplarni har xil shaxsda tushlash mumkin).Bu gaplarda undovlarning o'z asl ma'nolari yo'qligi tufayli bu undovlar bo'lmasa ham gapning ma'nosi o'zgarmaydi.

가)철수야, 날이밝았구나! - Cholsu, bugun havo ochiq bo'ldi-ya!

나)*철수야, 저사람이미쳤구나! - Cholsu, anub odam ketib boldimi-a!

다)*철수야, 인생은아름다워라! - Cholsu, ex hayot bunchalar go'zal!

라)*철수야,저녁놀빈하늘만눈에차누나! - Cholsu, kechki shafaq yo'qolib, atrof qorong`ilashdi!

Yuqorida keltirilgan gaplardagi-군,-누니,-아라 qo'shimchalari "monolog undovgaplar" da ishlatilib, -구나 va 군 qo'shimchasi "xabar yetkazuvchi undov gaplar" da ishlatiladi.

ㄱ) 내가드디어집에가게되었구나! - Men nihoyatuygaboradiganboldim-e!

ㄴ) 내가그런말을했었군! - Men bu gapni aytgandim-ku!

다) 내가그랬었구먼! - Men shunaqaman!

라) 내가당신한테큰잘못을했구나! - Men sizga ko'p zarar yetkazdim-a!

마) 제가정신이없섰군요! - Menda yurak yo'q!

Koreys tilidagi ranlarda ayrim undov gaplar bir xil undov so'zlar bilan yasalgan bo'lsa-da turli xil his-hayajonni ifoda etib keladi. Masalan, "아"undovi so'zi yordamida yasalgan undov gapdagi his-hayajonni ifodalaydi:

아, 해바랑이라니- Ura, ozodlik. 감격(ta'sirchanlik).

아, 기막힌경관이로구나- vooy, hayratlanarli tabiat.감탄(zavqlanish).

아, 등록금이왔군- A, a'zolik puli keldi.반가움(minnatdorlik).

아, 세월이유수와같군- E, vaqt tez oqar suvga o`xshaydi.안타까움(xafalik).

아, 내가틀렸군- Obbo, xato qilib qo'ydim.실망(afsuslanish).

아, 덩구나-voybo', havoning issiqligini.체감(nolish).

아, 친애비가제자식을팔아먹는담- Vooy,tuqqan otam o'z bolamni sotib pul qilyapti.놀라움, 두려움(hayratlanish, qo'rqish).

"응,그래"undovi esa rozilik, javob berish ma'nolariniifodalaydi, masalan:

재촉(rozilik bildirganda): 응,그래(xo'p)

극장에가자, 응-Teatrga boraylik, xopmi!?

대답(javob berganda)그래응(tushunarli xo'p),

응, 꼭갈게- Xo'p albatta boraman.

Gapda to'lqinlanish,insonlarning e'tiborini tortish va taklif bildirishkabi ma'nolar "자"undovi orqali ifodalanadi, masalan:

피임 (to'lqinlanganda): 자(ah!)

파티어뻘어요-kecha qanday o'tdi?

자, 좋았어요- Ah, juda zo'r.

주의환기(insonlarning e'tiborini tortish va taklif bildirish) 자 (qani, kel!)

자, 그것한번보자-Kel, mana buni bir marta ko'raylik.

자, 가자- Qani, ketdik.

자, 변변지않지마는다들자시오.¹⁶ –Qani, keling zo’r bo’lmasa-da, hammamiz uxlaylik.

Shuningdek, koreys tilidagi ranlarda hech qanday undov so’zlar va undov gap yasovchi qo’shimchalarsiz undov gaplarni uchratish mumkin. Ular undov belgisi yoki ohang jihatdan ushbu gap turlariga qo’shiladi.

갈보 되긴 싫어요!¹⁷ - Foxisha bo’lishni hoxlamayman!

난 큰 양반 대표고, 당신은 적은 양반대표로!¹⁸

Men katta yanban vakili sifatida, siz esa kichik yanban vakili sifatida!

¹⁶이광수. 전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -31 쪽

¹⁷O’sha manba -49 쪽

¹⁸O’sha manba -152 쪽

II bob.Koreys tilida undov gaplarning yasalihi.

2.1 Undov so'zlar bilan yasalgan undov gaplar.

Undov gap fikrni qattiqhayajon bilan ifodalab, kuchli ohangda aytiladigan gap bo'lib, koreys tilida undov gaplar asosan ikki xil usulda: undov so'zlar (감탄사) va undov qo'shimchalari (감탄종결사) orqali yasaladi.

Undov so'zlar mustaqil ma'noli so'zlar bilan yordamchi so'zlar orasidagi bir kategoriya bo'lib, ularda leksik ma'no grammatik ma'no bilan dialektik birlikni tashkil qiladi. Undov so'zlar nutqdako'pincha modal ma'no (nutqning borlikka munosabati)ni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu jihatdan undov so'zlar yuklamalarga yoki modal so'zlarga o'xshab ketadi.

Undov so'zlar fonetik shakllanishi,morfologik butunligi, ekspressivligi va maxsus ohangi bilan, egalik kelishigi, shaxs, zamon kabi grammatik ma'noni anglatmasligi bilan boshqa so'zlardan ajralib turadi.

Koreys tilshunosi So Jong Su o'zining tadqiqotlarida undovlarni ikki guruhga bo'ladi:

- 1) 감정감탄사 emotsional undovlar;
- 2) 의지감탄사 xoxish-istak undovlari.¹⁹

Lekin boshqa ko'p koreys tilshunoslari undovlarni uch guruhga bo'lishadi:

- 1) 감정감탄사 emotsional undovlar;
- 2) 의지감탄사 hoxish-istak undovlari;
- 3) 입버릇및더듬거림 rasm-odat undovlari.²⁰

Ma'zkur malakaviy ishda koreys tilshunosi Nam Gi Sim va Ko Yong Ginlarning ilmiy tadqiqotlariga asoslanib ish ko'rildi. Nomlari zikr etilgan tilshunos olimlar o'z tadqiqotlarini uch guruhga bo'lib o'rganishgan.Quyida biz ularni bosqichma-bosqich o'rganib chiqamiz:

1. 감정감탄사 His-hayajon undovlar

¹⁹서정수.국어문법. -서울., 1996., -199 쪽.

²⁰고영근., 표준 중세국어문법론., 서울시., 2009

His-hayajon undovlar so'zlovchining sevinch, qaxr, qayg'u, qarshi bo'lish kabi his-hayajonini ifodalaydigan undovlardir.²¹ Koreys tilida his-hayajon undovlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

a. 기쁨 sevinch, shodlikni ifodalovchi: 오,어,와,허, 허허, 하, 하하...

어,좋다!²² - O, zo'r!

오, 이견영이!²³ -- Xo, Li KonYong-ku!

b. 성냄 g'azablanishni ifodalovchi: 예,옛,에이,에게,에익,엑기,원;야,(참)에 (malomat, gina).

에이, 귀찮다²⁴ - Ey, jonga tegdi!

옛, 송장이다! 죽은사람이다!²⁵ - Obbo, murda! O'lgan odam!

c. 슬픔 qayg'u, xafalikni ifodalovchi: 애고,아이고, 예구,어이구, 어...

아이고, 아파.²⁶ - Voy, og'riyapti.

d. Xo'rsinish, qiyinchilik (한숨): 허,허허,하,하하,후,후유,아아...

허허, 아 이런 변 보았나!²⁷ - O'x-xo', endi bu yog'i ham ko'rindi-ku!

아아, 지옥 같은 농촌의 밤이여!²⁸ - Hmm, jahannamdek qishlog'imiz tuni-ey!

e. Hayrat, завqни

ифодаловчи(놀라움):아,아아,애고,아이고,아이고,에고,예구머니,익기,이크,야아,아따,

에따, 와따, 아이, 저런,

아이구,이게웬돈이야! - Voy, bu qanaqa pul!

예구머니, 영감마님오셨네.²⁹

²¹김정숙, 박동호, 이병규, 이해영, 정희정, 최정순 . 한국어문법 1.-서울., 2005., -237 쪽

²²O'sha manba -218 쪽.

²³O'sha manba -196 쪽

²⁴O'sha manba-74 쪽.

²⁵O'sha manba -501 쪽

²⁶O'sha manba -334 쪽.

²⁷O'sha manba -249 쪽.

²⁸이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -88 쪽

Voy, buni qarang-a, cholimiz tashrif buyuribdilar-ku!

아이, 자네같이귀한사람이어떻게우리집에있나.³⁰

Voy, sizdek aziz inson qanday qilib bizning uyda-ya.

에그머니, 영감마님목소리야!³¹

Voy, o'lmasam cholimizning ovozlari-ku

f. Achinish, afsuslanish,

bezovtalanish(늑우침, 낯떨어짐):어, 엉,아쁠사,어쁠사,아차...

아쁠사신상, 그것자붓지마시오.³²-Voy daxshat, uni yemang.

어, 이거큰일났군.³³ - Voy, rasvosi chiqibdi-ku!

아차!³⁴ - Ehh, afsus!

g. Qo'rquv (무서움):아이구,아,이이,에비,에비야,아야...

아이고, 이해가이마에서피가흐르는구나.³⁵

Voy-dod, bu bolaning peshonasidan qon oqayapti-ku.

아야, 아야사람살리우!³⁶ - Voy-dod, voy-dod odam qutqaring!

h. O'ylash(여김):참,정말,그형지,아무렴,암.

참, 맛난데.³⁷ - Juda-a mazali ekan.

암, 그렇고말고.³⁸ - Ha-a, unday emas-da.

i. Nafratlanish (미움):똥,체,체기할,흥,엑...

엑이놈!³⁹ - Voy yaramas!

²⁹O'sha manba-231 쪽.

³⁰O'sha manba-96 쪽

³¹O'sha manba -231 쪽

³²O'sha manba-431 쪽

³³O'sha manba -50 쪽.

³⁴O'sha manba -317 쪽

³⁵O'sha manba-350 쪽.

³⁶O'sha manba-74 쪽

³⁷이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -319 쪽.

³⁸O'sha manba-76 쪽

흥, 고약한계집년이!⁴⁰ - Voy, turqisovuq ayol-ey!

j. Hazillashish (놀림):에뚜에,따,아주,얼싸,어럽시오,용용,알랑총.

Bu guruhlar semantik jihatdan bir-biridan farq qilmaydi, aksincha, morfologik va sintaktik jihatdan farqlanadi. Gaplarda undovlarning o'z asl ma'nolari yo'qligi tufayli bu undovlar bo'lmasa ham gapning ma'nosi o'zgarmaydi. Yuqoridagi "아" yoki "아이구" aynan bir xursandchilik yoki xafalikni bildiradigan turg'un ma'noga ega emas, balki undan keyin kelayotgan gapga qarab, uning xursandchilik yoki xafalik ma'nosida kelayotgani aniqlanadi.⁴¹

2. 의지감탄사 Hoxish- istak undovlari

Hoxish-istak undovlari so'zlovchining rad etish, chaqirish, rozilik, inkor etish, hoxishini ifoda etadi. Biroq suhbatda tinglovchining mavqei katta o'rin tutadi. Bu turdagi undovli ifodalar undovli so'zlar orqali ifodalanib, noto'g'ri gaplarda ishlatiladi. Ushbu turdagi ifodalar yuqorida keltirilgan hissiy birikmalar bilan bir xil bo'lsada, ma'noviy jihatdan his-tuyg'ularni ko'rsatib bera olmasligi sabab, o'zaro farq qiladi. Undovli ifodalarda chaqiruv so'zlari, "예-ha", "아니오-yo'q" javobni bildiruvchi so'zlar, "글쎄-nima desam ekan", "에-Mm..." kabi kirish so'zlari bilan bir xil ma'nodagi so'zlarni o'z ichiga oladi.

Undov so'zlar o'z alohida ham qo'llansa-da, asosan, undov so'zlaridan keyin uni to'ldiruvchi boshqa birikma keladi:

1. a) 여보. Azizim.

2. b) 영감님, 여보영감님.⁴² - Cholg'inam, azizim cholim.

3. a) 예/아니요 ha/yo'q.

b) 예, 그렇습니다/ 아니오, 그게 아닙니다. - Ha, shunaqa/ Yo'q, unaqa emas.

4. a) 글쎄요. Nima desam ekan/ Anaqa.

³⁹O'sha manba-318 쪽.

⁴⁰O'sha manba-166 쪽

⁴¹O'sha manba-235 쪽.

⁴²이광수. 전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -172 쪽.

b)글쎄,그사람왜보니.-Nima desam ekan, unga nega qarayapman o'zi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, undov so'zlar aturdagi gap namunalarida o'zi alohida qo'llanishi ham mumkin, biroq ko'p hollarda, b gap turida ko'rsatib o'tilgan o'zidan keyin fikrni to'liqroq ifodalash maqsadida tasdiqllovchi, sabab birikmalarini olib keladi.

Undov so'zlar boshqa gaplar bilan sintaktik jihatdan emas, balki, faqat ma'noviy jihatdan bog'lanadi.Undov so'zlar nafaqat o'zi alohida qo'llanganda, balki, gapdankeyin kelgan hollarda ham faqatgina ma'noviy jihatdan o'zaro bog'lanadi. Undov so'zlar o'zidan keyingi kelgan gapning egasi, kesimi yoki ravishi bo'lib kela olmaydi. Chunki, undov so'zlar o'zidan keyingi birikimani olib tashlaganda ham mustaqil ifoda sifatida qo'llanishi mumkin.⁴³

Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

1. 단념 ey biror ishni qilma ma'nosida (inkor, qoniqmaslik) 예라/ 앓아라
2. 주이 jim ma'nosida (diqqat) :쉬,쉬쉬,쉴(tushsh!)
3. 추어쭈m predmetni yerdan ko'tarish : 자,위여,버터라,뽀내라(ko'tardikk!)
4. 께임 to'lqinlanganda: 자(ah!)
5. 재촉 rozilik bildirganda: 응, 그래(xo'p)
6. 으뜸 gap egasi yoshi kichik bo'lganda: 이놈,요놈,저놈,그놈 (anavi bola)
7. 힘쌌 kuch bilan biron ishni birgalikda qilayotganda:
이여차,어여차,어기여차,이여싸,어여싸 (qani, oldik)
8. 부름 chaqirish: 여보(azizi(a)m),여보시오(allo),이애(ey, bolakay(qizaloq)),
구구(chip-chip),워리(mah-mah)
9. 대답 javob berganda: 예(ha), 그래응(tushunarli xo'p),왜(demak), 오냐
(kelasanmi?), 아니올시다,아니오,아니(yo'q)

⁴³서정수.국어문법. -서울., 1996., -1399 쪽

Yuqoridagi undovlardan 아서라 undovi voz kechish, qoniqmaslik ma'nosini, 자 undovi rag'batlantirish ma'nosini anglatadi. Qolgan 여보, 여보세요, 애, 이와... lar chaqirish undovlaridir.

아서라, 이사람아.- Mana, bu odam.

아서라그래서는 못 쓴다.⁴⁴ -Bor-e, shunga yozolmayotgan ekanman-da.

애, 우리가유명하긴유명한가봐.-Hoy, biz mashhurlikka mashhur ko'rinamiz.

애, 유월아, 너는나가!⁴⁵ -Hoy, Yu Vol, sen chiq!

예, 암, 아무렴, 오냐, 응, 그래, 웁소, 글썸, 아니오, 천만에 undov so'zlari suhbatdoshning gaplariga ishonmaslik, shubha bilan qarash holatlarida ishlatiladi. Agar tinglovchining mavqei so'zlovchinikiga nisbatan katta bo'lsa 네 (네), 예, 그래요, 웁소 undovlari ishlatiladi.

예, 뭐라고요?-Ha, nima deysiz?

글썸, 아직은모르겠는걸.-Haligi, bilmasam.

Tinglovchining mavqei so'zlovchinikiga nisbatan kichik bo'lsa, 아무렴, 암, 그래, 응, 오냐 undovlari ishlatiladi.

아무렴, 그렇고말고.-Nima bo'lsa ham, undaymas-da.

그래? 아뵤든고마운일이구나. -Shundaymi? Nima bo'lsa-da minnatdorman-ey.

그래말안하기로해!⁴⁶ -Shunday, gapirmaslikka harakat qil!

Inkor javobda tinglovchining mavqei katta bo'lsa, 아니올시다, 아니오, 아니예요... undovlari ishlatiladi. Agar tinglovchining mavqei suhbatdoshnikiga nisbatan kichik bo'lsa, 아니, 아니다... undovlari ishlatiladi.

아니, 뭐라구? – Tushunmadim, nima deysiz?

⁴⁴이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -346 쪽

⁴⁵이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -177 쪽

⁴⁶O'sha manba -196 쪽

아니, 세상에이럴수가있나? -Yo'q, dunyoda shunaqasi ham bo'ladimi?

Suhbatdoshning so'zlariga shubha, ishonchsizlik tug'ilgan holda 글썸을시다, 글썸요, 글썸... undovlari ishlatiladi.

글썸, 아직은모르겠는걸. – Anaqa, hali bilmasam.

글썸을시다, 저는가고싶습니다만, 사정이허락하는지모르겠습니다. – Nimasini aytsamikin, men borishni hoxlayapman-ku, biroq boshliq ruxsat berishini bilmayman.

Undovlarning bu turi koreys tilidan turlicha tarjima qilingan. Ba'zi manbalarda buyruq-xitob, tasdiq-inkor, ba'zilarida esa maqsadni ifodalashi ko'rsatilgan. Koreys tilidagi manbada keltirilishicha, so'zlovchi suhbat davomida tinglovchiga o'z talabi yoki fikrini tushunarli tarzda ifoda etishiga maqsad undovlari ham (의지감탄사) deyiladi.

감정감탄사 so'zlovchining fikrini emas, tuyg'ularinigina ifodalasa, 의지감탄사 esa suhbatdoshga o'z fikrini ongli ravishda ekanligini ifodalaydi.

가. 여보, 여보세요, 예, 이봐, (chaqirishda) 아서라 (to'xtatish), 자 (rozilik).

나. 예, 암, 아무령, 오냐, 응, 그래, 옹소, 글썸, 아니오, 천만에(suhbatdoshning fikrini tasdiqlash yoki inkor etish uchun qo'llaniladi).

Yuqorida ko'rsatilgan misolda (가) suhbatdoshdan qanday harakat qilish haqida so'raydi.

어서라, 남을욕하지마라.- Hoy-hoy, birovni so'kma.

나 dagi tasdiq va inkor undovlari suhbatdoshning jamiyatda tutgan mavqei va yoshiga qarab farqlanadi. Tasdiq undovlar suhbatdoshning mavqeiniulug'laganda yoki hurmat qilganda '네,예,그래요,옹소'undovlari ishlatiladi. So'zlovchining mavqei кыйи yoki yoshi kichkina bo'lsa, unga javob berganda 아무령,암,그래,응,어냐 undovlari ishlatiladi. Inkor vaqtida suhbatdoshning nufuzi

yuqori yoki yoshi katta bo'lsa, javob berayotgan kishi: 아니올시다, 아니오, 아니예요, 천만에요 deydi, aksincha yosh bo'lsa '아니, 아니다, 천만에' kabi ishlatiladi. Ikkala holat uchun umumiy bo'lgan undovlar mavjud emas.

Agar gumon bilan javob qaytarilsa, mavqeiga qarab 글썽올시다, 글썽요 va 글썽 undovlari qo'llaniladi.

Masalan:

글썽, 그가요즘 무슨 일을 하는지 잘 모르겠는데.

Hmm, uning hozir nima ish bilan bandligini, to'g'risi bilmayman.

아차, 내가 네 생일을 잊을 뻔했다. - Voy, seni tug'ilgan kuningni unutayozibman.

아이고, 얼마나 무서워요. - Voy, bunchalar qo'rqinchli.

글썽, 좀 기다려봅시다. - Ha, biroz kutib turaman.

어머나, 이렇게 아름다울 수가... - Oh, bunchalar go'zal!

자, 우리 건배합시다. - Qani, qadah ko'taramiz!

아니오, 저는 그런 말을 한 적이 없습니다. - Yo'q, men bunaqa gap gapirmaganman.

가. 아무렴, 그렇구말구. - Albatta, shunday.

아서라, 이 사람아! - Voy, bu o'sha odam-ku!

에비야, 손대지 마라! - Hey, qo'l tekkizma!

천만에, 절대로 그런 일은 일어나지 않을 걸세. - Yo'q, bunday ish umuman sodir bo'lmaydi.

Yuqorida (가) da qo'llangan '아서라, 에비야, 아무렴, 천만에' kabi maqsad undovlari tanqid yoki rozilik, inkor kabi aniq ma'nolarga ega.

ㄱ. 앓아라, 썬 – Hoy, jim!

ㄴ. 그래, 아무렴, 암, 예, 오냐, 웁소, 응, 아니요, 아니, 천만에, 글썽

ㄷ. 여보, 여보세요, 이애, 이봐, 워리, 구구, 오래오래

(ㄱ) “그래, 아니요, 글썄” kabilar javob vazifasini ifodalaydi.(ㄷ)dagi '여보, 이애, 워리' kabilar “chaqiriq”- dagi '앗아라, 쏜' kabilar “buyruq”ni ifodalaydi.(ㄴ) dagi “xitob” vazifasini bajaruvchi undoshlar hisoblanadi.

3. 말버릇감탄사 Nutqdagi odatiy undovlari.

Undovlarning bu turi nutqimizda tez-tez ishlatilib, odatga aylanib qolgan undovlardir.Bular oldingi ikki turdagi undovlardan hech qanday grammatik ma'nosi yo'qligi bilan ajralib turadi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

a. 머, 뭐(무어), 그게말이지, 말이어, 말이요, 말입니다.

b. 어, 예, 저, 거시기, 음, 엠헴, 애햐

(a) da hech qanday hissiz, o'ylovsiz oddiy so'zlashybdagi odatlar (입버릇), (b) da esa o'ylagan gapini tez ifodalay olmay duduqlanganga o'xshash, hech qanday ma'nosiz chiquvchi ovoz.

Masalan:

자네말야.Sen bor-ku.

자네가누구?⁴⁷-Haligi, ana u bor-ku.

어떡한단말이요. ⁴⁸-Imm, nima qilsam ekan.

아버지,있잖아요, 우리학교에서봉사돈을모으고있대요. -Dadajon, anu, maktabimizda yordam puli yig'ishayotgan ekan.

내가말이야, 그책을말이야, 다읽었어. -Menmi, u kitobnimi, allaqachon o'qib bo'ldim.

저기,아까말씀드린여자말인데요.-Haligi, boya aytgan ana u qiz haqidagi gapni nazarda tutyapman.

저기,가줄래. -Huv, ana yerga borib turolmaysanmi.

자, 보아요. ⁴⁹-Xo'sh, qarang.

⁴⁷이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -44 쪽

⁴⁸O'sha manba -104 쪽.

네, 부르셨어요? -Labbay, chaqirdingizmi?

네, 그저께아침차요.⁵⁰-Ha, o'tgan kungi ertalabki choy.

Bulardan tashqari, quyidagi undovlarni urf-odat undovlari (ayrim manbalarda nutqiy odat undovlari deb ataladi) tarzida ajratish mumkin: 감사합니다-rahmat, 어서오세요-marhamat, 여보세요-allo, eshitaman,안녕-salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qul-luq va h.k

Masalan:

안녕, 나는타슈켄트에서온카몰라입니다. - Salom, men Toshkentlik Kamolaman.

감사합니다, 다음에는제가사드리겠습니다. - Rahmat, kelasi safar men olib beraman.

어서가세!⁵¹ - Marhamat, keting!

2.1 Qo'shimchalar yordamida yasaladigan undov gaplar.

Koreys tilida undov gaplar undov so'zlardan tashqari qo'shimchalar yordamida ham yasaladi.

Quyida undov gaplar yasovchi qo'shimchalarni ko'rib chiqamiz:

1. 구나 – bu qo'shimcha biror-bir voqea yoki hodisaning birinchi bor guvohi bo'lib, o'z his-hayajonini ifodalagan gaplarda qo'llaniladi. Bu qo'shimcha orqali yasalgan undov gap hurmat kategoriyasining quyi darajasidagi gap (해라체) hisoblanadi.

Shuningdek, -구나 qo'shimchasi zamon kategoriyalari ham mavjud bo'lib ular quyidagicha ifodalanadi:

a. Hozirgi zamonda – so'z o'zagi+(-는)구나

오,잘들하는구나.⁵²-Voy-bo', yaxshi qilayotgan ekansiz-da!

네말을들으니까꼭그사람생각이나는구나, 아하하허허.⁵³

⁴⁹O'sha manba -251 쪽.

⁵⁰이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -194 쪽.

⁵¹O'sha manba -46 쪽

⁵²이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -217 쪽

Seni gapingni eshitib, aynan u haqida eslayapman, xa-xa-xa xo'xo'.

유가네집은종자가다그런가보구나.⁵⁴

Marhumlar oilasining uyi hammasi shunday bo'lsa kerak-da.

b. O'tgan zamonda –so'z o'zagi+ -았/-었/-였구나

정선은한다리를잃었구나!⁵⁵-Chongson bir oyog'ingdan ayrilibsan-da!

응, 그래서네재산을모두네삼촌한테빼앗기고말았구나!⁵⁶

Hm, shuning uchun ham sen o'z jigaringga merosingni oldirib qo'yibsan-da!

그들은그길로오류장에를갔구나!⁵⁷-Shunday qilib,ylar tushunmovchilikka boribdilar-da!

팔아먹을수있는것은다팔아먹었구나!⁵⁸-Sotib yeyish mumkin bo'lgan hamma narsani sotib yebsan-da!

c. Kelasi zamonda –so'z o'zagi+-겠구나

너, 이글씨아니? 잘알겠구나.⁵⁹-Sen bu yozuvni bilasanmi? Yaxshi taniysan-a.

내일우리제가제일좋아하는제주도에가게되겠구나!

Ertaga biz men eng yaxshi ko'rgan Cheju oroliga borarkanmiz-da!

Ayrim hollarda, –구나 undov gap yasovchi qo'shimchasi –군 ya'ni, qisqartirilgan holda ham qo'llaniladi.

허, 재자가인이벌써의기가합하였군.⁶⁰

Hm, iqtidorli yigit va go'zal qiz allaqachon ruhan birlashibdilar-da!

어머, 여기너무아름답군! -Voy-bo', bu yer buncha go'zal!

⁵³O'sha manba184 쪽

⁵⁴O'sha manba -185 쪽

⁵⁵O'sha manba -298 쪽

⁵⁶O'sha manba-308 쪽

⁵⁷이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -239 쪽

⁵⁸O'sha manba- 66 쪽

⁵⁹O'sha manba-190 쪽

⁶⁰O'sha manba -214 쪽

차에서잠을못자서곤하겠군⁶¹-Mashinada uxlay olmay qiynalsam kerak.

오, 또이박사가왔군!⁶²-Voy, yana professor Li kelibdilar-da!

-군 qisqargan qo'shimcha hisoblanib, hurmat kategoriyasining eng quyi (해체) ko'rsatkichini ifodalaydigan undov gap yasaydi. Agar ushbu qo'shimcha yordamida yoshi kattalarga nisbatan hurmat kategoriyasining o'rta ko'rsatkichida gap (해요체) yasalsa, u holda -군요 qo'shimchasidan foydalaniladi.

응, 마침잘만났군요! -Voy, oxiri yaxshiyam uchratibsiz-da!

-구나 qo'shimchasi fe'llarga -는구나 shaklida qo'shib kelsa, sifatlarga esa o'zgarmagan shaklda, ya'ni -구나 bo'lib qo'shib keladi.

먹는구나! (fe'l) - Yeyayotgan ekansan-da!

아름답구나!(sifat) -Chiroyli-ya!

Agar -구나 bilan ifodalamoqchi bo'lgan undov gap inkor gap bo'lsa, u holda -로구나 qo'shimchasidan foydalaniladi.

장난감이아니로구나! - O'yinchoq emas ekan-da!

2. -어라 his-hayajonni ifodalovchi undov gap yasovchi qo'shimcha hisoblanib, so'zlovchining o'ziga-o'zi bildirgan fikrlarida, monologlarda uchraydi va faqat sifatga yoki holat fe'lga birikib keladi.

에그머니, 하나님무서워라,...⁶³ - Voy, buncha qo'rqinchli!

아이구아까워라.⁶⁴ - Voy, achinarli-ku!

⁶¹O'sha manba-149 쪽

⁶²O'sha manba-407 쪽

⁶³이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -320 쪽

⁶⁴O'sha manba-320 쪽

-어라 undov gap yasovchi qo'shimchasini hurmat kategoriyasining eng quyi (해체) ko'rinishida -어 shaklida qo'llash mumkin. Biroq, uniundov so'zi yoki ohang yana mazmuniga ko'ra darak gap yoki buyruq gapdan ajratish mumkin.

아이구, 추워! (undov gap)

추워. (darak gap)

아이구, 나는못참어.⁶⁵ - Voy-voyey, men chiday olmayman.

Yuqorida keltirilgan har ikkala kesim shakli bir xil. Biroq birinchi gapda undov so'z 아이구 va undov belgisi qo'yilgani uchun uni undov gap deya olamiz. Ikkinchi gap esa bundan mustasnodir.

3. -구먼 undov gap yasovchi qo'shimchasi hurmat kategoriyasida -구나 dan yuqoriroqda turadi. Ya'ni -구나 nisbatan -구먼 qo'shimchasi hurmatni ifodalaydi.

그래헌계집을얻어가지고좋아하는구먼⁶⁶

Shunday bir qari qizga ega bo'lib, yaxshi ham ko'rarkan-da.

제발날더러애기가아니배게해달라는구먼.⁶⁷

Meni ko'rib bolali emas, homilador bo'lishimni so'rayapti ekan-da!

육회도해먹고배갈도한잔씩따뜻하게데워먹고살아날것도같구먼!⁶⁸

Yukhe ham pishirib yeb, xitoy mayidan ham iliq qilib, илиtib ichib, endigina tirikka o'xshayapman-a!

Shuningdek, ushbu qo'shimchaning o'tgan va kelasi zamon shakllari ham mavjud bo'lib, ular -았/-었/-였구먼 va -겠구먼 shakllaridir.

응, 그럼점심은달먹겠구먼.⁶⁹ - Hm, unda tushlikqilib olgin-da.

⁶⁵이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -336 쪽

⁶⁶O'sha manba-345 쪽

⁶⁷O'sha manba -185 쪽

⁶⁸O'sha manba -437 쪽

⁶⁹O'sha manba -316 쪽

4. –구려 undov gap yasashda qo'llaniladigan qo'shimchasi –구나 va - 구먼 ga qaraganda nisbatan ko'proq hurmatni ifodalaydi. Gapda his-hayajonni bildiradi.

그때도 늦지않거든, 그때에 물어보시구려.⁷⁰ –O'shanda ham kechikmagandim, o'shanda so'rab ko'rmysizmi-ya!

오늘로 남편한테로 가시구려.⁷¹ – Bugundan erimnikiga ketyapman!

응, 그거 이 박사 글씨 같구려.⁷² – Hm, o'sha professor Lining yozuviga o'xshayapti-ya!

대고 싶을 때에 만대시구려.⁷³ – Tegishni xohlasangiz tegavering-ey.

Ushbu qo'shimchanning o'tgan zamon shakli –았/-었/-였구려 va kelasi zamondagi shakli –겠구려 ko'rinishidadir.

난 죽는 줄 알았구려.⁷⁴ – Men o'ldim deb o'ylabman-ey.

어, 그게 잘 됐구려. 축하합니다.⁷⁵ – O, zo'r bo'pti-ku. Tabriklayman.

그럼 죽어서 귀신이 되어야겠구려.⁷⁶ – Unda o'lsam, arvohta aylanarkanman-da.

5. –네(요) undov gapi yasashda qo'llaniladigan qo'shimchasi, ko'pincha tinglovchining so'zlovchiga nisbatan yoshi va amali jihatdan ulug'roq bo'lganida yoki so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilganiga ko'p vaqt bo'lmaganda ifodalanadi. Shuningdek, bu qo'shimchadan qadimda Koreyada asosan, ayollar foydalanishgan. Bu qo'shimchadan foydalanib gapirish o'ziga xos muloyimlikni ifodalagan. Biroq bugungi kunga kelib, ushbu qo'shimchadan ayollar ham, erkaklar ham bir xilda foydalanadilar.

⁷⁰O'sha manba-183 쪽

⁷¹이광수. 전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -185 쪽

⁷²O'sha manba-188 쪽

⁷³O'sha manba-303 쪽

⁷⁴O'sha manba-255 쪽

⁷⁵O'sha manba-248 쪽

⁷⁶O'sha manba-212 쪽

어머, 카몰라씨한국말을이제잘하시네요! - Voy, Kamola endi koreys tilida yaxshi gapiryapsiz-ku!

에그, 못만나셨네!⁷⁷ - Voy, uchratolmabsiz-da!

아이구, 다이런아름다운모양으로만들어주셨네!

Voy-bo', hammasini shunday chiroyli ko'rinishda yasab beribsiz-da!

Shuningdek, -네(요) qo'shimchasi so'zlovchining yolg'iz o'ziga ayon bo'lgan voqea yoki hodisadan ta'sirlanib aytadigan monologlarida ham uchraydi.

웁지, 아버지라면또딸이라네.⁷⁸ - To'g'ri-da, otang desa yana qiziman deyapti-ku! (O'ziga-o'zi ta'kidlash)

나는새사람이되려네.⁷⁹ - Men yangi odam bo'lyapman ekan-da. (O'zidan-o'zi so'rash)

6. -다 qo'shimchasi orqali yasalgan gaplar odatda darak gap bo'lib kelsa-da, ba'zan ushbu qo'shimcha orqali yasalgan gaplar ohangiga ko'ra ham undov gaplar hisoblanadi. Koreys tilida ushbu qo'shimcha ham undov gaplar yasashda qo'llaniladigan qo'shimcha kiradi.

웁다, 어려운일이아니다!⁸⁰ - To'g'ri, qiyin ish emas!

그리고유순과혼인을해가지고농촌으로들어가야한다!⁸¹ (ba'zanesa, shart ma'nosida ham keladi.) Shuningdek, Yu Sun bilan oila qurib, dehqonchilik qishlog'iga ketish kerak!

아, 참마침잘오셨소이다.⁸² - Voy, oxir-oqibat yaxshi keldib qoldingiz.

여기굴이있다!⁸³ - Bu yerda asal bor!

⁷⁷이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -194 쪽

⁷⁸O'sha manba -210 쪽

⁷⁹O'sha manba -406 쪽

⁸⁰O'sha manba -35 쪽

⁸¹O'sha manba. -57 쪽

⁸²O'sha manba-70 쪽

⁸³O'sha manba-473 쪽

Yuqoridagi gaplarda ohang muhim ahamiyatga ega. Sababi ohang uning undov gap ekanligidan darak beruvchi yana bir asos hisoblanadi.

7. -지 undov-so'roq gap yasashda qo'llaniladigan qo'shimcha.⁸⁴ Ushbu qo'shimchalar asosan, gapda -참(naqadar),정말로(rostdan ham) kabi so'zlar bilan birga keladi. Gapda so'zlovchining kuchli ohangi va undovini ifoda etib keladi. -지 qo'shimchasi bilan yakunlangan gap oxiriga “?” , “?!” , “!” kabi tinish belgilar qo'yiladi.

저꽃이참아름답지?!⁸⁵-Ana u gul naqadar go'zal-a?!

제가수가정말로노래를잘부르지!⁸⁶-Ana u qo'shiqchi haqiqatdan ham qo'shiqni yaxshi kuylaydi-ya!

8. -도다 ko'pincha qayg'uli voqealarga, shuningdek achinish,afsuslanish ma'nosidagi holatlarga nisbatan kuchli his-hayajonni ifodalash uchunishlatiladi. Otga qo'shilganda, -(이)도다 shaklida birikadi.

9. 기생! 예그듣기싫은이름이도다.⁸⁷ - Kiseng! Ey, eshitishni xohlamagan ism-da.

Qo'shimchalar orqali yasalgan undov gaplarni o'zlashritma gapga aylantirishda -구나(va boshqa qo'shimchalar)ni -다 ga almashtirish mumkin.

내남편올려오셨구나.⁸⁸ (Meni erim kelibdi-da.) Ushbu undov gapni quyidagicha:

그의남편이올려오셨다고합니다.(Uning eri kelganmish.)O'zlashtirma gapga almashtirish mumkin.

⁸⁴서정수 “국어문법”서울시., 1996. 409 쪽

⁸⁵O'sha manba 409 쪽

⁸⁶O'sha manba 409 쪽

⁸⁷이광수. 무정., -서울시., 36 쪽

⁸⁸이광수.전통한국문학대계 01., -서울시., 1994. -183 쪽

Xulosa

Koreys tilida undovларapturli xil hamda bir undov bir necha semantik qatorga ega. Shu sababdan, ham undov gaplarning turlari va ularning yasaliş jihatları turlicha. Koreys xalqi juda ham ta'sirchan xalq bo'lgani uchun koreys tilida insonning har bir his-tuyg'usini ifodalovchi undov so'zlar bor. Koreys tilida tinish belgilari deyarli ishlatilmaydi. Shu sababdan boshqa tillarda undov bo'lmagan gaplar ham, koreys tilida ohangi va undov so'zlar, shuningdek, undov gap yasovchi qo'shimchalar bilan undov gaplar sirasiga kiradi. Gapning tuzilishi va gapda qo'llanilgan undovlarga qarab, mazkur gapning ma'nosini anglash mumkin. Ushbu bitiruv malakaviy ishida koreys tilidagi undovlarning muhim xususiyatlari alohida yo'nalishlarda tekshirildi va quyidagi natijalarga erishildi.

1. Undov gaplar grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlaribilan boshqa gap turlaridan farqlanadi. Bir qator o'ziga xos gaplarni undov gaplar kategoriyasiga birlashtiradi. Koreys tilida ham undovlar gap yoki gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi, so'zlovchining his-hayajoni, buyruq va istagini, ta'kid va javobini ifodalaydigan grammatik kategoriyadir. Шy билан бирга his-hayajon kabi inson tuyg'usining so'zlarda bevosita инъикосidir. Undov gaplar ma'nosi ma'lum bir o'rin, vaqt va sharoitda aniqlanadi. Undov gapda ohang muhim o'rin tutadi. Chunki undov gaplar ma'lum ohang bilan aytilmasa, u his-tuyg'uni ifodalay olmaydi. Shuning uchun ohangning turlicha bo'lishiga qarab undov gaplar xilma xil his-tuyg'ularni anglatadi.

2. Koreys tilidagi undov gaplardagi undov so'zlar omonimlik xususiyatiga ega bo'lib, bitta undov so'z inson kayfiyatning o'zgarishiga qarab bir necha ma'noni anglatishi mumkin. Shunga ko'ra, butun bir boshli gapning ma'nosi ham aynan shu undov so'zga qarab o'zgarishi mumkin. Koreys matnlarida uchraydigan gaplarni ma'lum bir qolip asosida emas balki, kontekstning ohangi va so'zlovchining his-tuyg'ularini nazarda tutgan holda, tushunish maqsadga muvofiq.

3. Koreys tilida undov gaplar qurilishiga ko'ra ikki usul undov so'zlar va undov gap yasovchi qo'shimchalarra bo'linadi. Shu bilan birga undov gaplar yasashda qo'llaniladigan undov so'zlar uch guruhga bo'linadi:

a 감정감탄사-his -tuyg'uni ifodalovchi undov so'zlar: (xursandchilik, zavqlanish, minnatdor bo'lish, hayron bo'lish, xafalik, norozilik, nafratlanish, olqish, qo'rquv, hazillashish, xavotir, o'ylash, jahl chiqish va h.k.).

b 의지감탄사-hoxish-istakni ifodalovchi undov so'zlar: (inkor, taklif, rozilik, javob berish, chaqirish va h.k.).

c 말버릇감탄사-gapdagi odatni ifodalovchi undov so'zlar. Bunday undov so'zlar gapga hissiy jihatdan bo'yoq bersa-da, alohida ma'no anglatmaydi.

Shuningdek, urf-odat undovlari (ayrim manbalarda nutqiy odat undovlari deb ataladi) tarzida ajratish mumkin: 감사합니다-rahmat, 어서오세요-marhamat, 여보세요-allo, eshitaman,안녕-salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qul-luq va hokozolar ham undov gap yasashda ishlatiladi.

4. Koreys tilidagi undov gap yasashidagi yana bir ўзига хос jihat bu undov gap qo'shimchalri hisoblanadi. Koreyc urf-odatlari va tarixiga nazar solsak, ularda yosh va amal tushunchalari alohida o'rin egallaydi. Shu sababdan ham undov gaplar qurilishidagi undov qo'shimchalar yoshva amalning katta yoki kichigligiga qarab ishlatiladi. Bu esa koreys tilining o'ziga xos xususiyatidir. Yoshi katta va obro'li kishilarga “군요” qo'shimchasini qoshib gapiriladi. Yoshi kichik kishilarga esa “군” qo'shimchasi qo'shiladi. Shuningdek, o'rganilgan materiallardan shu narsa aniq bo'ldi-ki, darak gap belgisini bildiruvchi qo'shimcha -다 ham undov gaplar yasash uchun ham qo'llaniladi. Ushbu qo'shimcha yordamida yasalgan gapda uning ohangi yoki undov belgisi qo'llanishiga qarab uni undov gaplar qatoriga qo'shish mumkin. Koreys tilida yana ko'plab qo'shimchalar mavjud bo'lib, ular ham alohida undov gap yasash uchun ajratilmagan, balki ularni yuqorida keltirilganidek, ohang va mazmun, shuningdek qo'llanilgan belgiga qarab ajratish mumkin.

5. Yuqorida aytib o'tganimizdek, undov gapda maxsus undov so'z ishlatilmagan bo'lsada, kesimga qo'shilgan qo'shimchalar undov so'z bilan bir xil

ma'noni anglatadi. Ko'p hollarda esa, gapda ham undov so'z, ham undovni anglatuvchi qo'shimchalar qo'shiladi.

6. Koreys tilidagi undov gaplar grammatik tomondan butun bir gap vazifasini o'taydi, undagi undov so'z va qo'shimchalar esa gapdagi sintaktik birlikning ma'nosini kuchaytiradi, unga emotsional bo'yoq birlik ro'lini o'ynaydi. Koreys tilidagi undov gaplar nutqda keng qo'llaniladi. Umuman olganda koreys tilidagi undov gaplar deyarli bir-biriga o'xshamaydi. Ular xilma-xil va keng o'rganilishi ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

1. M.T.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent .,«Yangi asr avlod»., 2009.
2. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. Toshkent., «Fan va texnologiya»., 2007.
3. I.Yuldoshev, U.Sharipov. Tilshunoslik asoslari. Toshkent. 2007.
4. S.Rahimov, B.Umurqulov “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. Toshkent – 2003yil.

Koreys tilidagi adabiyotlar:

5. 서정수. 국어문법. 서울., 1996.
6. 김정숙,박동호, 이병규, 이해영, 정희정, 최정순 .한국어문법 1., 서울., 2005.
7. 남기심, 고영근. 표준국어문법론., 서울시., 2003.
8. 이주행.한국어문법의 이해., 서울특별시.,2004.
9. 최명억. 국어음운론. 서울.,2004.
10. 이광수.정통한국문학대계 01,6,8.,서울.,2005.
11. 장시원.한국어로서의 한국어학.,서울.,2005.
12. 엄 넬리. 한국어 9., 모스크바., 2002.
13. 박찬익. 학교 문법과 문법 교육., 서울., 2005
14. 이석주., 이주행 한국어학 개론., 서울시.,2006
15. 고영근., 표준 중세국어문법론., 서울시., 2009
16. 남기심.고교문법.1997
17. 이익섭, 채완. 국어문법론강의. 화연사, 2003

Rus tilidagi adabiyotlar:

18. Ли.Б.С., Шим Л.В., Львова И.С., Адылова С.Р. Сравнительная типология корейского и узбекского языков. Т., 2011
19. Ю.Н.Мазур. Граматика корейского языка. Москва. 2001.
20. Ким В.Н., Че Су Енг. Стилистика корейского языка.Т., ТашГИВ. 2012.

21. Ким Фил, Ким В.Н. Грамматика корейского языка. Морфология и синтаксис. Т.; ТашГИВ. 2011.
22. Ким В.Н., Ким Е.В. Грамматический и синтаксический строй корейского языка. Т.; ТашГИВ. 2011.
23. Лингвистический энциклопедический словарь., М., 1990
24. Цой С., Ким Я., Ким Х., Пэ.Я. Практическая грамматика корейского языка. KOICA -2000.
25. Ким.Ф. Грамматика современного корейского языка. Алматы, Изд.-КазНУ -2002.

Lug'atlar:

26. 김문욱,이스마일로프,김춘식,무하메드좌노바.한-우사전.서울.도서출판베델사., 2006.
27. 박형규. 한러사전. 모스코바. 러시아어문학사., 2005.
28. 한국어-영어 문학 전자 사전.2011.
29. 한노사전.출판:러시아문학사.2004
30. 엡센스.국어사전.-서울:민중서림 2000.
31. 한러사전.- 서울시: 러시아어문학사. 2004.
32. 한러 사전 박형규.,서울.,2001

Internet saytlari:

33. www.google.ru
34. www.naver.com
35. www.philology.ru
36. www.til-adabiyot.fan.uz
37. www.daum.com.
38. www.polusharie.com
39. www.ZiyoNet.uz